

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK TARMOQLARI: PRAGMALINGVISTIKA

ASPECTS OF MODERN LINGUISTICS: PRAGMALINGUISTICS

АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКИ: ПРАГМАЛИНГВИСТИКА

Qurbonova Sayyoraxon Maxamadaliyevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg'ona akademik litseyi tillarni o'rganish kafedrasini boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalariga oid ayrim jihatlar tadqiq etilgan. Antroposentrik tilshunoslik sohalari tarkibiga aniqlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: antropolingvistika, generativ lingvistika, kognitiv tilshunoslik, mentalingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, sociolingvistika, diskurs, stilistika, lingvopoetika, lingvokulturologiya.

Annotatsion. The article discusses some aspects of modern linguistics. The structure of anthropocentric linguistics has been clarified.

Keywords: anthropolinguistics, generative linguistics, cognitive linguistics, mentallinguistics, neurolinguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics, ethnolinguistics, sociolinguistics, discourse, stylistics, linguistic poetics, linguoculturology.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые аспекты современной лингвистики. Уточнена структура антропоцентрической лингвистики.

Ключевые слова: антропологистика, генеративная лингвистика, когнитивная лингвистика, менталингвистика, нейролингвистика, психоллингвистика, прагмалингвистика, этнолингвистика, социоллингвистика, дискурс, стилестика, лингвистическая поэтика, лингвокультурология.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda inson omili nazarda tutilgan ilmiy paradigmalar keng tarmoqliligi bilan ajralib turadi. U tilshunoslik fani tadqiqot obyekti markaziga matn emas, shaxsni qo'yish bilan mazkur fanning jamiyat uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab qirralarini o'rganishga keng yo'l ochib beradi. Shaxs omilini tilshunoslik faniga nafaqat daxldor, balki eng asosiy va muhim omil darajasida baholaydi. Bunda tilshunoslikning yirik paradigmalarini bo'lgan semantika, sintaktika va pragmatikani farqlash bilan birga ularning keyingi tarkibiy qismlariga ajratish mumkin.

ASOSIY QISM

O'zbek tilshunosligida bu masalalarga oid fikrlarni birinchilardan bo'lib A.Nurmonov, N.Mahmudovlar o'z munosabatini bildirgan bo'lsalar, Sh.Safarov,


M.Hakimov, Sh.Shahobiddinova, D.Xudoyberganova, I.Hojaliyevlarning tadqiqot ishlarida masalalarga yanada chuqur kirib borib, ilmiy asoslashga harakat qilingan.

Pragmatika, birinchi navbatda, antroposentrik yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Antroposentrik yo‘nalishlarning izchil paradigmasi generativ lingvistika, kognitiv tilshunoslik, mentalingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika, pragmlingvistika, etnolingvistika, sosiolingvistika, diskurs, stilistika, lingvopoetika, lingvokulturologiya ketma-ketligida tartiblanadi. Keyingi paytlarda antroposentrik yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarda yuqorida sanab o‘tilgan fan tarmoqlarida izchillik paradigmasi farqlanmaydi. Tadqiqotlar mohiyati qaysi yo‘nalishda olib borilayotganligi hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham antroposentrik yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda ilmiy va badiiy manbalar tahlilida ham masalalarni o‘zaro qorishtirish holatlari ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda axborot manbalari va shakllari shu darajada ko‘payib bormoqdaki, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilangina axborotlarni umumiy tizimlashtirish mumkin. Bunda tilshunoslikning ham tadqiqot obyekti kengayib, masalalari qiziqarli tus oladi. Chet tillarni bilish va tarjimashunoslik masalalari zamonaviy texnologiyalar hamda dasturlar bilan ta‘minlanishi natijasida matnlarni bir tidan ikkinchi tilga o‘girishning tezkor usullari ishlab chiqilmoqda. Bu esa pragmlingvistik yo‘nalish rivojiga xizmat qiladi.

Pragmlingvistik yo‘nalishlar xususida N.M.Vaxtel o‘z davrida pragmlingvistika sohasida olib borilgan tadqiqotlarni izchil tartiblar ekan, uning ilmiy paradigmalarni jadvallarda belgilab berdi. U til haqidagi fanlar kesimida pragmlingvistikaning o‘rnini quyidagi holatda ko‘rsatib berdi.


1-jadval



N.M.Vaxtel pragmlingvistika tarkibiga kiruvchi sakkizta asosiy yo‘nalishni jadval shaklida ajratadi. Bu yo‘nalishlar har biri o‘z masalalariga ega ekanini ta‘kidlab, muammolar mundarijasini sanab ko‘rsatadi. N.M.Vaxtel taqdim etgan ushbu jadval pragmlingvistika tarkibiga kiruvchi yo‘nalishlarni qamrab olgani holda soha masalalari doirasini belgilashda muayyan kamchilikka ega: jadvalda pragmlingvistikaning mavjud til manbasidan foydalanish jarayoni bilan bog‘liq sohalarigina aks etgan. Nutqiy faoliyatning yuzaga kelishi, boyishi, taraqqiyoti, unda til materialining kengayishi va torayishi masalalarini o‘rganuvchi sohalar ham bor. Agar diskurs nazariyasi masalalarini boshqa bir

shaklda, masalan, nutqiy ta’sir etish bilan berilgan degan taqdirda ham til resurslarining til egasi tomonidan qabul qilinishi – idrokini o‘rganuvchi kognitologiya, undagi muammolar bilan shug‘ullanuvchi neyrolingvistika, nutqiy jarayonlar davomida til bazasining boyib borishini tahlil qiluvchi generativ lingvistika sohalari ham ushbu paradigmadan joy olishga to‘la haqlidir. Til va salomatlik tarmog‘i ham bugungi kunda nihoyatda dolzarblashib bormoqda. Shunga ko‘ra, bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari tarkibini quyidagicha etib belgilash maqsadga muvofiqdir.

2-jadval



Antroposentrizm bilan bir paradigmada sun’iy intellekt va korpus lingvistikasini sanash mumkin. Sun’iy intellekt va korpus lingvistikasida maxsus formula, sxema, simvolga asoslangan modellar bo‘lgani uchun unda inson omili ta’siri qoliplangan shaklda bo‘ladi. Bu ikki bosqichli jarayon bo‘lib, muayyan kodlar tizimida shakllantirilgan formula, sxema va simvollarni yaratish va ishga tushirishda yetakchilik qilgan inson omili jarayonlarda uning algoritmik harakatinigina qabul qiladi. Undagi ong va tafakkur imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Tabiiy tilda esa bunday chegaralanishlar kuzatilmaydi, unda kontekstual o‘zgarishlar muntazam va to‘xtovsiz ravishda yuz beradi. Nutq vaziyati va inson omili ta’sirida lisoniy birliklar ifodalagan ma’no va mazmun muntazam ravishda o‘zgarib turadi. Shuning uchun til materiallarini kommunikasiya jarayonida o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarning psixolingvistik tahlili va tadqiqiga ehtiyoj kuchayadi.

Nutq hodisalarining sodir bo‘lish sababi masalasiga kelganda esa echim, albatta, sof lingvistika chegarasidan chetga chiqishni taqozo etadi. Bunda masalalar ko‘lami lingvistika

sohasidan uzoqlashganday, tilshunoslik fani obyekti doirasidan chiqqanday tuyuladi, chunki ong ishtiroki natijasida sodir bo‘lgan muloqot jarayoni o‘ta murakkab bo‘lib, unda sotsial, psixologik hamda fiziologik belgilar mujassam va o‘zaro chambarchas bog‘langan holda mavjud bo‘ladi. Aslida masalalarni o‘rganishning mohiyati butunlay o‘zgachadir: nolingvistik ma’lumotlar bilan shug‘ullanish natijasida biz lingvistik bilimlar sohasini toraytirib, lingvistik modellarni nutq jarayonida kuzatilishini yanada aniqroq, ravshanroq ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘lamiz. Natijada tilning pragmatik jihati yanada sayqallanib, masalalar yechimi oydinlashib boradi. Bunday yondashuvning maydonga kelishi allaqachon – o‘tgan asrning birinchi yarim yilligida sodir bo‘la boshlagan.

Inson olamni bilishga qay darajada faol harakat qilar ekan, ayni paytda o‘z-o‘zini bilishga shu darajada kirishadi. Shu ma’noda insoniyat uzoq davrlardan buyon o‘z-o‘zini o‘rganishga, idrok etishga ehtiyoj sezadi. Gap insonning o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishlari haqida borar ekan, bu ma’noda qator tarmoqlarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy fanlar yo‘nalishi va unda qo‘lga kiritilgan yutuqlar salmog‘i juda katta ekanligini e’tirof etib o‘tish o‘rinli. Ammo fan tarmoqlari o‘zaro farqlangan holda o‘z masalalari bilan alohida-alohida shug‘ullanishni ma’qul ko‘rib ish olib borayotgan holatda shunday muammolarga duch kelinishi mumkinki, ularni ma’lum bir fan doirasida to‘laqonli qamrab olish, bir fan doirasidan chiqmay turib uning barcha savollariga javob topishning imkoni yo‘q. Til va uning rivojlanishi masalalarining o‘rganilishi ana shunday – bir necha fan sohasini birlashtiribgina yechim topilishi mumkin bo‘lgan sohalar sirasiga kiradi.

Lingvistik birliklarni ta’riflashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratamiz: birinchidan, til – mohiyat, nutq – jarayon. Bu o‘rinda «mohiyat»ni «konsept» so‘zi bilan, «jarayon»ni «ta’sir» so‘zi bilan almashtirilsa, birliklardagi ijtimoiy mohiyat yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Til shunday vositaki, kishilar u orqali so‘zlashadilar, muloqotga kirishadilar. Demak, tildan foydalanuvchi biror ifodani nutqda qo‘llashda uning natijasini – hosilasini nazarda tutadi. Aynan shu oraliq ongda tug‘ilgan tushunchani ifodaga aylantirish va nutqda qo‘llash hamda boshqalar tomonidan ma’lum shakldagi axborotni qabul qilish va uni ongda qayta tushunchaga aylantirish – ya’ni anglash, idrok etish jarayonini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi, til mavhum, nutq esa konkret tushuncha. Bunda nazarda tutilgan tushunchani ifoda etishda til vositasining ayni tushunchani ifodalash uchun qay darajada mosligi nazarda tutiladi. Bu o‘rinda sinonimiya va unda ma’no nozikliklarining saqlanishi muhimdir. Uchinchi, til birliklari ma’lum belgilariga ko‘ra sanalish, miqdor xususiyatiga ega bo‘lib, ular chegaralangan hisoblanadi. Nutq birliklari esa ong orqali qabul qilingan axborotga bog‘liq bo‘lib, ular xilma-xil va chegaralanmagan. Bu o‘rinda til va nutq birliklarining har ikkisi lingvistik birlik ekanini nazardan qochirmagan holda aytish mumkinki, nutq birliklarida til birliklariga nisbatan psixologik belgilar ortiq ekani ko‘zga tashlanadi. Til birliklarida mavjud bo‘lgan psixologik mazmun – masalan, bu so‘zning ijobiy yoki salbiy tushuncha ifodalashi o‘ta nisbiy bo‘lib, davr o‘tishi bilan bu munosabat o‘zgarishi, ba’zan esa to‘laligicha aks ma’no ifodalashi mumkin.

Matniy persepsiya haqida tushuntirishga harakat qilgan olim I.Azimova modellar va ulardagi asosiy obyekt masalasida «...kognitiv modellarda matn spesifik, asosiy obyekt

sifatida olingan bo‘lsa, psixologik modellarda inson obyekt sifatida olinadi, psixolingvistik modellarda matn nutqiy oqim sifatida qaraladi» degan fikrni ilgari suradi.

Til muayyan jamoa va individ ongida zahira sifatida mavjuddir, uning moddiylashishi nutq orqali yuz beradi. O‘z navbatida, borliqdagi voqelikning idrok etilishi ham inson tafakkuridagi modellar orqali etkaziladi. Sh.Safarov idrok etishning bunday qoliplarini freymlar deb ataydi. «Konseptual faoliyatga xos bo‘lgan ushbu milliy-madaniy mazmun muloqot tizimida o‘z aksini topmay qolmaydi. Voqelik idroki natijasida hosil bo‘ladigan konsept freym tuzilishida, ya’ni qolipli ravishda kechadi. Freym borliqning idrok etish modeli sifatida turli mantiqiy-ruhiy assotsiasiyalar asosida shakllanadi». Freymni o‘ziga xos mantiqiy faoliyat zanjiri ko‘rinishida tasavvur etish g‘oyasini ilgari surgan olim ularning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan jihatlarni «tugun», «band» deya tushuntirishga harakat qiladi va «bu tugun va bandlarning har biri maxsus «topshiriq»ni bajaradi, vazifani o‘taydi. Ana shunday vazifalardan biri milliy-madaniy mazmunni ifodalashdir». Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, milliy-madaniy mazmun psixolingvistik birlik strukturasida o‘z ifodasini topadi, ayni paytda shaxsga xos xususiyatlar ham nutqda aks etadi, lingvistik birlik tarkibida belgining tarkibiy elementi sifatida ishtirok etadi. Demak, lingvistik birliklar borliq olamdagi predmetlarni atash uchun xizmat qilsa, ularning nutq jarayonida ko‘zlangan maqsadni ifodalash uchun lingvistik birlik orqali belgini ongda aktivlashtirish ularda psixolingvistik belgilarni hosil qiladi. Psixolingvistik vositalar inson ongi bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur vositalarning nutq jarayonida qo‘llanilishi insonning obyektiv olamda mavjud predmet va voqea-hodisalar mohiyatini anglashda ular haqidagi umumiy qarashlari hamda turlicha munosabatlariga asoslangan bo‘ladi. Bu munosabat shakllari lingvistik, paralingvistik, ekstralingvistik vositalar yordamida ifoda etiladi. Ularning ifoda shakli individual belgi ma’nosiga egadir. Aynan individ munosabatining mavjudligi nutq imidjini belgilaydi. Nutq imidji lingvistik birliklar pragmatikasida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Lingvistik birliklar nutq tarkibida qo‘llanilish jarayonida yangitdan, qaytadan mazmun-munosabat ifoda etish bosqichini o‘taydi. Bunda lingvistik birlikning umumiy ijtimoiylik ma’nosi saqlanishi bilan birga mavjud vaziyat bilan bog‘liq qaytadan yuklangan yangi mazmuni mavjud bo‘ladi. Shu ma’noda nutq bevosita shaxs xususiyatlarini ifodalovchi vositalar doirasiga, nutq jarayonida qo‘llanilgan vositalar esa lingvopsixologik birliklar tarkibiga dahldor bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. Б-11.
2. Вахтель Н.М. Прагмалингвистика в таблицах и схемах. Учебное пособие – Воронеж, 2006. –С.31. стр. 5.

3. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти - Тошкент, 2012. -№5. -Б. 3-16.
4. Нурмонов А. Тилшуносликнинг психология билан муносабати. // Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 2-жилд. Б-164-169.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006.
6. Сафаров Ш. Прагматингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
7. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
8. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 2001.